

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi bo‘yicha
2024-yilning 1-chorak yakuni yuzasidan
TAHLILIIY MA’LUMOT**

Davlat dasturining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublika davlat dasturi. Farmonning 2-ilovasi 13-band.

“Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish (**48-maqсад**, Respublika davlat dasturi 13-band) vazifasi belgilandi.

Amalga oshirilmoqda:

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida, joriy yil 1-choragida “RWS optimum” MChJ bilan og‘ir yuk kutarish qobiliyati 90 tonna bo‘lgan 14 dona “Caterpillar CAT-777E” avtosamosval olish uchun 28.12.2024-yilda NMMC-23/444–son, 3 dona “WK-10C” elektr ekskavator xarid qilish uchun 28.12.2024-yilda NMMC-23/853–son shartnomalar tuzildi. Shuningdek, 2 dona zanjirli buldozer olish shartnomasi loyihasi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks eksper-tizasi Markazi” DUKga kelishish uchun taqdim etildi.

Hozirga qadar 1 dona ekskavator Xitoy davlatidan yetib kelishi kutilmoqda, 2 dona ekskavator olib kelingan. 2 dona yuk kutarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan avtosamosval AQShdan keltirilib, Belgiyaning Antverpen portida avtoulovga ortilmoqda.

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida, Respublika aholisining ichimlik suv ta’moti darajasini oshirish (**61-maqсад**, Respublika davlat dasturi 94-band) vazifasi belgilandi.

Shu davrga qadar 26 ta suv tozalash uskunasi o‘rnataladigan hudud aniqlandi. Namuna sifatida NMZda 1 dona uskuna tayyorlandi. Hozirda uskunalarni o‘rnatish bo‘yicha xorazmlik firma bilan kelishuv olib borilmoqda. Bu ishlarga NKMK homiyligi hisobidan 3 mldr. so‘m mablag‘ ajratilmoqda.